

**XALQ ERTAKLARINING MADANIY HAMDA IJTIMOIIY
ASPEKTLARI**

*Ismatov Asliddin Fazliddin o'g'li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil
izlanuvchisi, filologiya fanlari
nomzodi (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu tezisda xalq ertaklarining madaniy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi, ularning xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy tuzilishini aks ettirishi o'rganiladi; o'zbek va ingliz xalq ertaklari misolida gender rollari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy normalar va madaniy identifikatsiya masalalari ko'rib chiqiladi hamda ertaklarning jamiyatdagi o'zgarishlarni yoritishdagi roli, madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati va zamonaviy ta'limda qo'llanilishi tahlil qilinadi.*

Tayanch so'zlar: *xalq ertaklari, madaniy meros, ijtimoiy tuzilish, gender rollari, oilaviy qadriyatlar, milliy identifikatsiya, axloqiy normalar, ta'lim, kollektiv xotira.*

Xalq ertaklari madaniy va ijtimoiy jihatdan xalqning tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim vositadir. Ular orqali jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, oilaviy munosabatlar, axloqiy normalar va madaniy identifikatsiyasi ifodalanadi. Masalan, o'zbek ertaklarida qahramonlik, sadoqat va jamoaviy ruh kabi jihatlar ta'kidlanib, oila va vatan uchun fidoyilik ko'rsatiladi.

Ertaklar xalqning madaniy identifikatsiyasini saqlab, avlodlarga o'tkazadi va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni yoritadi. Ertaklarning madaniy konteksti xalqning dunyoqarashini, turmush tarzini va ijtimoiy qadriyatlarini ochib beradi. Masalan, o'zbek ertaklarida jamoaviy mas'uliyat va oilaviy bog'liqlik ko'proq ta'kidlansa, ingliz ertaklarida shaxsiy erkinlik va individual yutuqlar ustuvorlik qiladi. Masalan, "Jack and the Beanstalk" da qahramonning shaxsiy jasorati va

tavakkalchiligi aynan shu masalani ta'kidlaydi. O'z navbatida, bu kabi farqlar ertaklarning ijtimoiy va madaniy muhitda qanday shakllanganini ko'rsatadi va ularning madaniy tahlildagi ahamiyatini oshiradi.

Ijtimoiy xususiyatlar ifodasi ertaklarda gender rollari va oilaviy dinamikada yaqqol ko'rinadi. Arab ertaklarida ayollar ko'pincha dono, zukko va yordamchi sifatida tasvirlanadi, masalan, "Ming bir kecha" ertagidagi Shahrizoda o'z zukkoligi bilan shohning qalbini o'zgartiradi. Ayni shu omil sharq madaniyatidagi ayol rolini aks ettiradi va ayolning aql-idrok bilan jamiyatdagi ta'sirini ko'rsatadi. Ingliz ertaklarida, g'arb madaniyatida bo'lganidek, individual baxt va sevgi hikoyasiga urg'u beriladi. Bu esa shaxsiy muvaffaqiyatga intilishni ta'kidlaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi solishtiruvlar, o'z navbatida, ertaklarning ijtimoiy "bias" larni qanday aks ettirishini ochib beradi hamda gender tengligi, oilaviy munosabatlar kabi masalalarni tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, o'zbek ertaklarida erkak qahramonlar ko'pincha oila va jamiyat uchun fidoi insonlar sifatida tasvirlansa, ingliz ertaklarida qahramonlar shaxsiy maqsadlari va shon-shuhrat uchun kurashadilar. Bu farqlar jamiyatdagi ijtimoiy rollar va gender dinamikasining madaniy farqlarini ko'rsatadi.

Ertaklar orqali ijtimoiy normalar va gender rollarining evolyutsiyasini kuzatish mumkin, bu esa ularni ijtimoiy tahlilda muhim manba sifatida ko'rsatishga asos yaratadi. Masalan, o'zbek ertaklaridagi ayollar ko'proq oilaviy birlik ramzi sifatida tasvirlansa, ingliz ertaklarida ayollar ko'pincha shaxsiy baxt izlovchisi sifatida ko'rinadi (masalan, "Binnoire" xalq ertagida).

Madaniy jihatdan ertaklar xalqning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini va estetik qadriyatlarini saqlaydi. O'zbek ertaklarida tabiat kuchlari va ruhiy olamlar muhim o'rin tutadi, masalan, "Bulbuliguyo" ertagida qushlarning ramziy ma'nosi xalqning tabiat bilan bog'liqligini, erkinlik va o'zgarishga bo'lgan intilishini ko'rsatadi.

Ertaklar orqali madaniy meros og'zaki an'analarda avlodlarga o'tkaziladi, bu esa jamiyatning kollektiv xotirasini shakllantiradi. Masalan, o'zbek ertaklarida tabiatga hurmat va ruhiy olamga e'tiqod ko'proq aks etsa, ingliz ertaklarida

xristianlik qadriyatlariga urg'u beriladi.

Bundan tashqari, ertaklarda ishlatiladigan ramziy tasvirlar, masalan, o'zbek ertaklaridagi "uchar gilam" (erkinlik va imkoniyatlar ramzi) yoki ingliz ertaklaridagi "magic sword" (qudrat va adolat ramzi), xalqning madaniy va estetik tasavvurlarini ochib beradi. Bu ramziy elementlar ertaklarning madaniy merosni saqlashdagi rolini ko'rsatadi.

Ertaklarning ijtimoiy ta'siri zamonaviy jamiyatda ham davom etmoqda, chunki ular bolalarga madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni o'rgatadi. Zero, ertaklar orqali bolalar adolat, mehribonlik, mas'uliyat va hamkorlik kabi qadriyatlar bilan tanishadi, bu jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'zbek va ingliz ertaklarida umumiy motivlar, masalan, yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi - insoniyatning universal qadriyatlarini ko'rsatadi. Ammo milliy o'ziga xosliklar orqali madaniy farqlarni ta'kidlaydi. Masalan, o'zbek ertaklaridagi "yaxshilikka yaxshilik" kabi hikmatlar oilaviy va jamoaviy mas'uliyatni o'rgatsa, ingliz ertaklaridagi "bravery leads to victory" kabi motivlar shaxsiy jasorat va individual muvaffaqiyatni targ'ib qiladi.

Ertaklarning ta'lim sohasida qo'llanilishi bolalarga nafaqat axloqiy saboqlar beradi, balki ularning madaniy o'zlikni tushunishiga yordam beradi. Masalan, o'zbek ertaklaridagi oilaviy qadriyatlar bolalarga jamoaviy ruhni singdirsa, ingliz ertaklaridagi individual qahramonlik hikoyalari shaxsiy rivojlanishga undaydi. Ertaklarning madaniy diplomatiyada qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega, chunki ular turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni rivojlantiradi va xalqlarning o'ziga xos qadriyatlarini dunyoga tanitadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ertaklarining madaniy va ijtimoiy aks etishi ularni jamiyatning oynasi sifatida qadrlashga sabab bo'lib, madaniy merosni saqlash, ijtimoiy o'zgarishlarni tushunish va zamonaviy ta'limda qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda, ertaklar nafaqat madaniy identifikatsiyani mustahkamlaydi, balki universal insoniy qadriyatlar orqali xalqlarni birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
2. Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2004. – 240 с.
3. Померанцева Э.В. Судьбы русской сказки. – Москва: Наука, 1965. – 220 с.
4. Хомский Н. Язык и мышление. – М.: Изд-во Московского университета, 1972. – 126 с.